

## TADBIRKORLIK MADANIYATI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOIY ASOSLARI

**Karimov Ulmasbek**

*doktorant,*

*Farg‘ona davlat universiteti,*

*O‘zbekiston, Farg‘ona sh.*

**Annotatsiya:** *Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasidir. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘shish suratlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** *tadbirkorlik, ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik madaniyati, iqtisodiy o‘shish.*

Hozirgi zamonda barqaror iqtisodiy o‘shishning eng muhim garovi – raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mahsulotlar uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko‘paytirish, mintaqaviy tranzit salohiyatidan to‘liq foydalanish hisoblanadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston faol tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash uchun eng muhim masalalarni hal etishga urinmoqda. «Jahon bankining «Biznes yuritish» reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo‘yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qildik. Hukumat ushbu tadbirlarning amaliy ijrosini samarali tashkil etishi zarur»[1]. Hozirda yurtimizda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish hamda bu sohadagi yondashuvlarni o‘zgartirish, innovatsion tamoyillarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

“Tadbirkorlik” tushunchasi XVIII asrda shakllangan bo‘lsada, uning evolutsiyasi bizning zamonda ham davom etmoqda. Bu tushuncha o‘sha davr mashhur iqtisodchilari R.Kantil‘yon, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smid, J.B.Sey va boshqalar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini ilmiy tadqiq qilish natijasida shakllangan. Tadbirkorlik tushunchasi qariyb uch asr nazariya va amaliyotda qo‘llanilib kelinayotganiga qaramay uning universal ta‘rifi shakllanmagan va ko‘p ma‘noligi saqlanib kelmoqda. Buning asosiy sababi tadbirkorlikning ko‘p qirrali, ko‘p sohali, ko‘p tarmoqli, ko‘p shaklli murakkab faoliyat bo‘lishidir.

Tadbirkorlikka oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar XVIII asr buyuk allomalari R.Kantil'on, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit, J.B.Sey va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Demak, "tadbirkor", "tadbirkorlik" tushunchalarining paydo bo'lishi shu davrga to'g'ri keladi. Keyinchalik bunday tadqiqotlar kengayib, alohida ilmiy yo'nalish tusini olgan, ularning natijalarini amaliyotda qo'llash esa iqtisodiyotga samarali ta'sirini namoyon qila boshlagan. Shunday natijalardan biri "tadbirkorlik" tushunchasining shakllanishi va mazmun-mohiyatining aniqlanib, boyitilib borishi hisoblanadi.

Tadbirkorlik madaniyati madaniy faoliyat hamda ijtimoiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, insonning aqliy va jismoniy faoliyatining yuksak ko'rinishi hisoblanadi. Tadbirkorlik to'g'risida hali bizda aniq bir tasavvur, tushuncha shakllanganicha yo'q. Tadbirkorga xos xususiyatlardan biri uning madaniyatidir. Tadbirkorlik madaniyatini asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Tadbirkorlik madaniyati – bu madaniyat omillarini hamma yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy tashkil qilish (moddiy va ma'naviy);

2. Bu madaniyatning ayrim elementlari rivojlanishi bo'yicha g'oya, maqsad, vazifalarning [bir-biriga mos kelishi](#);

3. Tadbirkorning amaldagi qonunchilik doirasida faoliyat yuritishi;

4. Tadbirkorning ijtimoiy-iqtisodiy, texnikaviy, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayanishi;

5. Tadbirkor o'z faoliyatida xodimlarini va hamkorlarini eng qadrli kishilari sifatida qabul qilishi kerak;

6. Tadbirkor har doim kelajakka ishonch va umid bilan qolganlarni o'ziga ham ishontira olishi lozim.

Umuman tadbirkorlik tushunchasini ingliz olimi R.Kantilton ilk marotaba izohlagan bo'lsa, A.Smit, D.Rikardo, I.Kant, F.V.Gegel, J.J.Russo, Sh.L.Montesk asarlarida tadbirkorlikda gender farqlarni oldini olishni yuksaltirish bilan bog'liq masalalarning falsafiy tahlili amalga oshirilgan. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tadbirkorlar faoliyatining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini asoslashda A.Tyurgo, J.B.Sey, R.Xizrich, Y.Shumpeter, U.Adams, G.Gross, J.Filips, V.Xoyer kabi nazariyotchi olimlar ham ilmiy asoslangan qarashlarini ilgari surganlar. MDH doirasida tadbirkorlikda gender farqlarni oldini olishni yuksaltirish masalasining falsafiy tadqiqini V. S. Avtonomov, xorijda esa iqtisodiyot sohasida Nobel mukofoti sovrindorlari M. Alle va G. Saymon asarlarida kuzatish mumkin.

Falsafiy tushuncha sifatida «tadbirkorlik» so'zining mazmuni XVIII asrda ingliz olimi Richard Kantilon tomonidan qayd etilgan[3]. Tadbirkorlik tushunchasi tarixiy manbalarda O'rta asrlardan boshlab uchraydi. Bu

davrda cheksiz foyda olish maqsadida harakatga kelgan missionerlar, savdogarlar, olib sotarlar, hunarmandlar Yevropa bo'ylab keng tarqaladi. XVI asrda aksionerlik kapitalining iqtisodning barcha turlariga ta'sir qilish jarayoni boshlangan. XIX asrda Yevropada oilaviy firmalarni yemirilishi, tarqab ketishi kuzatilgan va kichik va yirik biznes o'rtasidagi nomunotasiblik chuqurlashib borgan. Avstriyalik faylasuf olimlar L.Mizes[4] va F.Xayeklarning tadqiqotlarida tadbirkorning shaxsiy qobiliyati, faoliyat xususiyatlari, ya'ni uning o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy hodisalarga munosabati, qaror qabul qilishdagi mustaqilligi, boshqarish qobiliyatiga, tadbirkorlikning jamiyat iqtisodiy tizimini muvozanatlashtirishdagi, tartibga solishdagi rolini tahlil qilishga katta e'tibor berganlar[5]. Bunday tadqiqotlar natijasida tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik madaniyatining umumfalsafiy tahlili keltirilgan.

Tadqiqotchi K.Makkonell va S.Bryu tadbirkorning psixologik portretini gavdalantirishga harakat qilib, uni ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi, katalizator vazifasini bajaruvchi, biznes yuritishda dolzarb qarorlar qabul qiluvchi, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga intiluvchi, tavakkalchilikka moyil shaxs sifatida izohlaydilar[6]. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlikning o'z iqtisodiy tabiati mavjud bo'lib, ushbu mavjudlik uning ikki tomonlama xususiyatida namoyon bo'ladi. Bir jihatdan, tadbirkorlik xususiy mulkchilik sifatida bo'lsa, ikkinchi tomondan, tadbirkorlik faoliyatini oqilona yuritish va boshqarishdir.

«Tadbirkorlik sub'yektlarini tekshirishning huquqiy asoslari» nomli qo'llanmada keltirilishicha, «tadbirkorlik ota-bobolarimizga xos xislatdir. O'lkamizning Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hindiston, Bobil, O'rta yer dengizi atrofidagi xalqlar, Yevropa davlatlari bilan o'rnatgan iqtisodiy va madaniy aloqalari tadbirkorlikni taqozo etgan. Buyuk ipak yo'li aslida tadbirkorlik namunasi, xalqimizning turli davlatlar va qit'alar bilan o'rnatgan iqtisodiy, madaniy aloqalarining, shu jumladan, tadbirkorligining ham ifodasidir. Amir Temurning quyidagi so'zlari ham bu fikrimizni tasdiqlaydi: «Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi bo'lgan, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan afzaldir»[7]. Tarixiy taraqqiyotda davlatlarni va jamiyatlarning rivojlanishi savdo munosabatlariga, tadbirkorlik faoliyatiga bog'liq bo'lgan va tadbirkorlik munosabatlarining takomillashuvi davlatlarni va aholining farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Tadbirkorlik faoliyatiga turlicha ta'rif berish ko'zga tashlanadi. Masalan, A.Ortiqov unga – «amalda qabul qilingan qonunlar doirasida korxonalar, firma tashkil qilish, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish) bilan shug'ullanuvchi faoliyat»[8], deb ta'rif beradi. Bu o'rinda huquqiy masalalarga e'tibor qaratilgani ko'zga tashlanadi. SHunday

yondashishni biz O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda ham kuzatamiz. «Tadbirkorlik faoliyat (tadbirkorlik), – deyiladi unda, – tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdin»[9]. Bu o'rinda shaxsiy tashabbusga urg'u berilayotgan bo'lsa-da, qolgan jihatlar tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy tomonlarini hisobga oladi. Shunday ekan tadbirkorlik madaniyati insonning tashabbuskorligi, faolligi va ishbilarmonligiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar kambag'allikni qisqartirish va qashshoqlikka qarshi kurashishga qaratilgan. Zero, «kambag'allikni kamaytirish–bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdin»[10]. YUridik fanlari doktorlari, professorlar R.Ro'ziyev va Sh.Ro'zinazarovlar qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik faoliyatni o'rganib, unga: Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatining asosiy mazmuni shundan iboratki, dehqonlar o'zlarining tadbirkorligi va tashabbuskorligini ro'yobga chiqarish uchun keng erkinlik berish, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish, o'z mehnatlarining provard natijalari bo'yicha manfaatdorligini oshirib, ishlab chiqargan mahsulotlarini mustaqil tasarruf etish huquqlarini kafolatlashdir[11], deb ta'rif beradi. Mazkur ta'rifda tadbirkorlikning ijtimoiy xarakteriga, mehnatning samarali natijalariga e'tibor qaratiladi. Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini inkor qilmaydilar, zero, tadbirkorlik faoliyati qishloq xo'jaligidagi o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etish, olib borishning huquqiy mexanizmlarini ochib berishga e'tibor qaratilgan. Shunday bo'lsa-da, ular tadbirkorlikka keng, ijtimoiy-falsafiy ta'rif berishga intilganlar. Mazkur belgi tadbirkorlik faoliyatining fundamental xususiyatini tashkil qiladi.

O'zbekistonda ham iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, axloqiy munosabatlarni yuksak qadrlaydigan jamoani tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent, "O'zbekiston", 2020. –B. 24.

2. Sindarov K. Tadbirkorlik sub'yektlarini tekshirishning huquqiy asoslari. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2006. –B.7.
3. Bordo, Michael David (2003). Some Aspects of the Monetary Economics of Richard Cantillon (subscription required). *Journal of Monetary Economics*. 12 (2): -P.235-58.
4. Мизес Л. Экономический и социологический анализ. –Москва: Catallaxy, 1994. –С.414.
5. Хайек Ф.А. Индивидуализм и экономический порядок. – Челябинск: СОЦИУМ, 2011. –С.394.
6. Макконелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2-х томах. Том 1. –Москва.: 2002. – С.38.
7. Sindarov K. Tadbirkorlik sub'yektlarini tekshirishning huquqiy asoslari. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2006. –B.8.
8. Ortiqov A. Iqtisodiy-huquqiy atamalarning izohli lug'ati. –Toshkent.: 1996. –B.100.
9. Tadbirkorlik huquqlarini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlari. –Toshkent.: Adolat, 2002. –B. 5.
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent.: "O'zbekiston", 2020. – B. 31.
11. Ro'ziyev R., Ro'zinazarov Sh. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish asoslari. –Toshkent.: Falsafa va huquq inst. nashr., 2009. –B.21.
12. Sadigjonovich, G. B., & Umaralievich, K. U. (2022). SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE ORIENTATION OF YOUNG PEOPLE TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY. *Research Focus*, 1(4), 359-363.
13. Ғаниев, Б. С. (2015). УЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ. *ILMIY XABARNOMA, Андижон*, 1(4), 51.
14. Sayitkhonov, A. (2020). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF YOUTH TO ENTREPRENEURSHIP. *Theoretical & Applied Science*, (1), 38-41.
15. Sayithanov, A. A. (2020). THE PLACE OF INDIVIDUAL INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF BUSINESS RELATIONS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(6), 385-390.